



OLMOSH SO'Z TURKUMINI O'TISHDA INNOVATSION PEDAGOGIK USULLARDAN FOYDALANISH

Salimova Sarvinov Halimovna

Shofirkon tuman 22 – maktabning ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6045046>

MAQOLA TARIXI

Qabul qilindi: 15-dekabr 2021

Ma'qullandi: 15-yanvar 2022

Chop etildi: 5-fevral 2022

KALIT SO'ZLAR

Zamonaviy pedagogik texnologiyalar, kreativ ijodkorlik, olmosh so'z turkumi, topshiriqlar

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada ona tilini o'qitish va o'rganishda zamonaviy pedagogik usullarning samarasi, kreativ yondashuvning o'ziga xos xususiyati, uni 7- sinfda o'tiladigan olmosh so'z turkumining ma'no guruhlarini o'rganishdagi ahamiyatini yoritib berilgan.

Hozirgi kunda barcha sohalarda bo'layotgani singari ta'lim sohasida, ayniqsa, ona tili va adabiyot fanlarida ilg'or pedagogik texnologiyarni joriy etish va ulardan samarali foydalanish bo'yicha turli xildagi tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. Shuni ta'kidlash muhimki, ona tili va adabiyot darslarida noan'anaviy metodlarni olib kirish, va uni ta'lim mazmuniga singdirish, yang-yangi usullarni yaratish DTS talablarini bajarishga zamin yaratadi.

Ta'lim tizimida qo'llanilayotgan innovatsion texnologiya va metodlar o'quvchilarni yuksak bilim cho'qqilarni egallab, ularni fikrlashga, o'z shaxsiy va mustaqil qarashlarga ega bo'lishda katta ahamiyat kasb etmoqda. Har bir o'qituvchi dars o'tishdan oldin darsda qo'llaydigan innovatsion pedagogik texnologiyalarning har bir elementigacha sinchiklab o'rganishi, tadqiq qilishi lozim.

Ayni payda asosiy pedagogik texnologiyalar: imperik, kognitiv, everistik, kreativ, inversion, inkulyuziv va boshqa

ko'plab texnologiyalardir. Dars jarayonida bu texnologiyalarni tanlay bilish - bu o'qituvchining mahoratiga bog'liq.

Kreativ yondashuv yutuqlari dunyo bo'ylab fan va texnologiyadan tortib, falsafa, san'at va gumanitar fanlar kabi turli sohalarda insoniyat tamaddunini ilgari surgan. Ta'limning asosiy vazifasi o'quvchida jamiyatda muvaffaqiyatli hayot kechirish va kelajakda kerak bo'ladigan ko'nikmalardir. Kreativ fikrash bilim berishga qaratilgan dars mobaynida ko'r-ko'rona yodlash o'rniga o'quvchining ijodkorligini qo'llab quvvatlashdir. Kreativ fikrlashni baholash bir qator test savollarga atroficha javob berish bilan birga mavzuga nisbatan o'quvchilarda ko'nikma hosil qilishdir.

Fikrimiz isboti sifat olmosh so'z turkumining ma'no guruhlarini bo'yicha maxsus topshiriqlar bilan tanishamiz.

1-topshiriq. "Yo'nalishni to'g'ri top!" usulida foydalanib olmoshlarning ma'no guruhlarini va ularning birliklarini to'g'ri yo'nalishlarini belgilang.

TURLARI	OLMOSHLAR
Belgilash olmoshlari	Men, sen, u, biz, siz, ular




Gumon olmoshlari	<i>o'z</i>
Kishilik olmoshlari	<i>Bu , shu, o'sha, ana, mana, ana bu, mana bu, anavi, manavi</i>
Bo'lishsizlik olmoshlari	<i>Kim?, nima?, qayer?, qanaqa?, qaysi?, nechta?, nega?, nima bo'ldi?</i>
Ko'rsatish olmoshlari	<i>Hamma , barcha, bari, har nima, har kim, har qanday, ba'zi</i>
O'zlik olmoshi	<i>Hech kim, hech nima, hech qachon, hech qaysi</i>
So'roq olmoshlari	○ <i>Kimdir, nimadir, allakim, allaqanday, allaqaysi, allanarsa</i>

"SEN BUNI, ALBATTA, UDDALAYSAN!" (Topshiriq sharti: jadvalda berilgan ta'riflardagi nuqtalar o'rniga kerakli olmosh turini qo'ying va ikkinchi qismida ta'rifga mos misol yozing).

....kishilik olmoshlari bilan birga qo'llanilganda kuchaytirish, ta'kid ma'nolarini bildiradi.	
.....uch shaxsdan biriga ishora qilib, ko'rsatib keladi.	
.....shaxs va predmetlarni jamlab, guruhlab keladi.	
.....shaxs va predmet va voqea -hodisalarga ishora qilib keladi.	
.....olmoshi voqea-hodisalarning umuman yuz bermaganlini ifodalaydi.	
.....olmoshi shaxs, narsa, voqea-hodisalar va harakatning so'rog'ni bildiradi.	
..... olmoshlar gap tarkibida kelganda subyekt yoki obyekt mavhum bo'ladi.	


Berilgan topshiriqlar o'quvchilarni ham nazariy, ham amaliy jihatdan izlanishga undaydi. Endi mavzuni mustahkamlovchi topshiriqlarni ko'rib chiqsak:

1-TOPSHIRIQ. Quyida berilgan chizmadan foydalanib, olmoshlarning qaysi ma'no turi tilimizda keng qo'llanishini belgilang va o'z fikringizni isbotlang.




2-TOPSHIRIQ. "Hamkor" usulidan foydalanib, o'rtog'ingiz bilan birga quyidagi doiralarga olmosh so'z turkumi haqidagi fikrlaringizni yozib chiqing va o'qib bering.





3-TOPSHIRIQ. Bo'sh halqachalarga shunday olmoshlarni joylashtiringki, u ham kelishik, ham egalik qo'shimchalarani

qabul qila olsin va ular ishtirokida og'zaki gaplar tuzing. M: buning ,bunim



Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash kerakki, o'qitish jarayonida o'quvchilarga shaxs sifatida qaralishi, turli turli pedagogik texnologiyalar hamda zamonaviy metodlarning qo'llanishi, ularning erkin

fikrlashga, izlanishga, har bir masalaga jiddiy yonadshishga, tanqidiy , mustaqil fikrlashini shakllantirishga, ijobiy fazilatlarini tarbiyalashga va ularning qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ishmuhammedov R. "Pedagogik texnologiyalar"
2. Shayxislamov N. (2021) O'quvchilarning yozma savodxonligini oshirishda yozma ishlarning o'rni, 1659-1664.
3. Шайхисламов, Н (2020) Ўқувчиларнинг нуткий компетенцияларни ривожлантиришда нутқнинг илмий- назарий асослари.
4. Muslimov N, va boshqalar. Kasb ta'limi o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirish texnologiyasi. 2013 y. Toshkent, "Fan va tenologiya" .
5. N. Mahmudov, A [va boshqalar] va boshqalar 7- sinf uchun ona tili darslik – Toshkent: "Ma'naviyat" , 2017